



**INGLIZ TILI DARSLARIDA TIBBIY DEONTOLOGIK MADANIYAT
KO'NIKMA VA MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH ILMIY DIDAKTIK
MUAMMO SIFATIDA**

Axadova Mahliyo Halimovna

Osiyo xalqaro universiteti

Tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy deontologik madaniyat, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Deontologiya, malaka, ko'nikma, tibbiyot.

Tibbiyot deontologiyasi — tibbiyot xodimlarining kasbga aloqador etikasi, doridarmon, umuman davoning ta'sirini oshirishga karatilgan xulqatvor taomillari. Deontologiya, ya'ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha 16-asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi I. Bentam tomonidan taomilga kiritilgan. Tibbiyot deontologiyasiga oid ma'lumotlar uzoq tarixga ega. Aslida, Tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy mazmunga ega bo'lib, bir qancha yo'nalishlardan iborat:

- shifokor bilan bemor o'rtasidagi;
- shifokor bilan bemorning yaqin kishilari o'rtasidagi munosabat;
- shifokorning hamkasblari bilan munosabati va hokazo.

Tibbiyot deontologiyasiga vrachning sir saqlashi, bemorning hayoti va sog'lig'i uchun tibbiyot xodimining javobgarligi, tibbiyot xodimlarining o'zaro munosabati masalalari va boshqa kiradi. Tibbiyot deontologiyasiga muvofiq, tibbiyot xodimi bemorga katta e'tibor berishi, uning sog'lig'ini tiklash yoki azobini yengillatish uchun butun bilimini sarflashi, bemorga uning sog'lig'i haqidagi faqat foyda keltira oladigan ma'lumotlarni aytishi bemorning vrach bilan sirdosh bo'lishiga erishuvi zarur. Bemorning kasalligi haqida uning ishtirokida hamkasblari bilan so'zlashishi yaramaydi.



Tibbiyot deontologiyasining tibbiyot amaliyotida to'g'ri joriy qilinishi, shifokorning ongi, saviyasi, madaniyati, dunyoqarashi, bilim va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan chambarchas bog'liq. Kishilik jamiyatining turli davrlarida deontologik munosabatlar turlicha kechgan, u zamon talabiga moye ravishda o'zgarib borgan.

Tibbiyot deontologiyasi tibbiyot xodimlaridan yuksak insoniy fazilatlar, sofdillik, ziyraklik, odamiylik va boshqalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Tibbiyot deontologiyasi xalqaro kodeksini Xalqaro vrachlar jamiyati tasdiqlagan (1949, Jeneva). O'zbekiston Respublikasida tibbiyot oliygohlarini bitiruvchilar „O'zbekiston shifokori“ qasamyodini qabul qiladilar.

Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddabiron, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash Respublikamiz tibbiyot oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir. Hozirgi zamon metodika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o'qitish metod va usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilganligi seziladi. Ammo ana shu metodikani tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta'kidlash mumkin. Ingliz tili fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori bu muammolardan holi emas. Muammo bu sohadagi nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarda amaliyot va kasbiy faoliyat jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Demak, ko'plab o'qituvchilar, pedagoglar eskirib qolgan nazariy bilimlar bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlar etishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya - kompetensiya egasi bo'lish, kompetentli pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi. Kompetentlikning o'zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga layoqatlilik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar



metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ulami amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilanadi, ya'ni kompetentlik - bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq".2020 yil, 20-29 betlar.
2.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar,

1. 1, Axadova Mahliyo. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari boshlang'ich bosqich talabalari deontologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Vol. 65 No. 2 (2025): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ|Выпуск журнала №-65|Часть-2 <https://scientific-jl.com/obr/article/view/5074>.

2. Axadova Mahliyo.INGLIZ TILI AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TALABALAR TIBBIY TEXNIK KO'NIKMA VA MALAKALARINING RIVOJLANTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA Vol. 39 No.2 (2025): TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI. <https://journal-web.uz/index.php/06/issue/view/31>

3. Axadova , M. . (2025). INGLIZ TILI AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TALABALAR TIBBIY TEXNIK KO'NIKMA VA MALAKALARINING RIVOJLANTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA. Молодые ученые, 3(4), 53–55. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/44609>

4. Axadova, M. (2025). INGLIZ TILI AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TALABALAR TIBBIY TEXNIK KO'NIKMA VA MALAKALARINING RIVOJLANTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA. В CENTRAL ASIAN



JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (Т. 3, Выпуск 2, сс. 22–24). Zenodo.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14825158>